



ONLAYN SUD SANKSIYASI INSTITUTINI JORIY ETISH ISTIQBOLLARI

Ibragimov Otabek Nodir o'g'li

Huquqni muhofaza qilish akademiyasi "Prokurorlik
faoliyati" yo'nalishi magistratura tinglovchisi e-mail:

otabekibragimov0007@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19366284>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 22-mart 2026 yil

Ma'qullandi: 26-mart 2026 yil

Nashr qilindi: 31-mart 2026 yil

KEYWORDS

*onlayn sud sanksiyasi, elektron
raqamli imzo (ERI), elektron
iltimosnoma, axborot
xavfsizligi, idoralararo
himoyalangan elektron axborot
tizimlari, jinoyat-protsessual
qonunchiligi.*

ABSTRACT

Ushbu maqola raqamli sud-huquq tizimini modernizatsiya qilish, sud tizimida "onlayn sud sanksiyasi" institutini, jumladan O'zbekiston Respublikasida onlayn sud sanksiyasini joriy etishning huquqiy va tashkiliy mexanizmlari, ilmiy-nazariy va amaliy istiqbollari tahlil qilingan. Bundan tashqari, ushbu tadqiqot ishida onlayn sanksiya berishning tashkiliy, texnik va axborot xavfsizligi masalalari, iltimosnomalarni elektron shaklda yuborish, shuningdek idoralararo himoyalangan elektron axborot tizimlariga asoslangan "onlayn sud sanksiyasi" mexanizmini joriy etish masalalari tahlil qilingan.

So'nggi yillarda sud-huquq tizimi raqamlashtirish hamda zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish butun dunyo mamlakatlarida adolatni amalga oshirish samaradorligini ta'minlab beradigan muhim omillaridan biri sifatida qaralmoqda. Zamonaviy axborot texnologiyalari bugungi kunda jamiyat rivojlanishining barcha sohalariga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatmoqda. Rossiyalik taniqli huquqshunos va kriminalist olim T.S.Volcheskaya ta'kidlaganidek, "Bugungi kunda inson faoliyatining deyarli barcha sohalariga axborot texnologiyalari hamda raqamli mexanizmlarni joriy etish — taraqqiyotning eng dolzarb va istiqbolli yo'nalishi hisoblanadi".

Ta'kidlash kerakki rivojlanayotgan mamlakatlarda boshqa sohalar kabi sud ishlarini yuritish tizimi axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining tezkor rivojlanishiga bevosita moslashib bormoqda. Shu qatorida mamlakatimizda ham sud va prokuratura faoliyatini integratsiyalashtirish, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini to'laqonli himoya qilish maqsadida tergov harakatlari, protsessual majburlov choralarini qo'llash to'g'risidagi iltimosnomani sud organi tomonidan qonuniy hamda tezkor tartibda ta'minlab berish maqsadida yangi tartibda joriy qilingan tergov sudyasi vakolatlariga kiritilgan sanksiya berish tizimini onlayn tartibga o'tkazish tartib-taomillari dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Ushbu tadqiqotning normativ asosini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi normalari, qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va hukumatining farmon va qarorlari, shuningdek, sud-huquq faoliyati sohasidagi ilmiy tadqiqotlar tashkil etadi. Tadqiqotning

metodologik asosi sifatida umuminsoniy xarakterga ega bo'lgan ilmiy va umumiy dialektik usuli hamda mantiqiy deduksiya, induksiya, taqqoslash, tahlil qilish, umumlashtirish va tavsiflash usullari tashkil etadi.

Raqamli texnologiyalarni sud tizimiga joriy etish hamda ularni amaliy qo'llash jinoyatlarni tergov qilish, shuningdek sudlar tomonidan jinoyat ishlarini ko'rib chiqish jarayonining samaradorligini oshirishga olib kelyapti. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 11-moddasiga asosan, davlat hokimiyati qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linadi. Sud hokimiyatini asosiy vazifasi odil sudlovni amalga oshirishdir. Sudlar faoliyatini raqamlashtirish esa zamonaviy huquqiy demokratik davlat qurishning muhim tarkibiy qismi sanaladi.

So'nggi yillarda sud tizimida elektron hujjat aylanishi, masofaviy sud majlislari, audio hamda video yozuvlari qayd etish tizimlari, elektron raqamli imzo, avtomatlashtirilgan sud axborot tizimlari keng joriy etilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasida sud amaliyoti ma'lumotlar bazasi sud.uz yoki my.sud.uz ya'ni "Sud hujjatlari e'lon qilinadigan yagona portal"ning joriy etilishi sud tizimini raqamlashtirishning ilg'or bosqichlaridan hisoblanadi. Ushbu texnologiyalar sud ishlarini ko'rib chiqish jarayonini tezlashtirish, protsessual xarajatlarni kamaytirish, fuqarolarga qulaylik yaratish hamda sud faoliyatining shaffofligini oshirishga xizmat qilmoqda. O'zbekiston Respublikasida sud tizimini raqamlashtirish va unda zamonaviy texnologiyalarni qo'llash bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan,

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-avgustdagi "Sudlar faoliyatiga sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish orqali odil sudlovga erishish darajasini oshirish hamda sud tizimining moddiy-texnik ta'minotini yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 140-son Farmoni orqali sudlar faoliyatiga "Raqamli sud" konsepsiyasini joriy etish, sud ish yurituvini raqamlashtirishni chuqurlashtirish, sudlar faoliyatiga sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish uchun zarur texnik infratuzilma yaratish hamda sud qarorlarining adolatligi va izchilligini ta'minlashga qaratilgan ustuvor vazifalar belgilandi. Bundan tashqari, sud huquq tizimini rivojlantirish, "O'zbekiston — 2030" strategiyasida belgilangan ustuvor yo'nalishlardan kelib chiqib, sudlar faoliyati samaradorligini oshirish, ishni sudga qadar yuritishda taraflarning tengligi va tortishuvi prinsipini amalda ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yilda 10-iyunda "Tezkor-qidiruv hamda tergov faoliyatida shaxsning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 89-sonli farmoni qabul qilindi va O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksiga 311-modda kiritilib tergov sudyasi lavozimi joriy etildi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston – 2030 strategiyasini 2023-yilda sifatli va o'z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 300-sonli qarori bilan 2024-yil yakuniga qadar qonunda belgilangan asoslarda tezkor qidiruv va tergov harakatlariga sanksiya berish masalasini alohida sudyalari – tergov sudyalari tomonidan ko'rib chiqish tartibi joriy etilishi belgilangan. Tadqiqotchi D.Jo'raqulovning "Tergov sudyasi tomonidan sanksiya berish tartibi: huquqiy asoslari, amaliyot va dolzarb muammolar" maqolasida keltirilganidek, "tergov sudyasi institutining joriy etilishi tergov organlari faoliyatida shaffoflikni oshirishga, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini himoya qilishga xizmat qilmoqda. Tergov sudyasi vakolatlarining markazida esa protsessual majburlov choralarini qo'llashga sanksiya berish masalasi turadi". Yana bir huquqshunos

olimlar Zinchenko va L.M.Fetishcheva ta'kidlaganidek, "Tergov sudyasi birinchi instansiya sudining sudyasi bo'lib, u jinoyat ishlari bo'yicha odil sudlovni amalga oshirish bilan bir qatorda, jinoyat protsessida ishlarni sudgacha bo'lgan ish yuritishda sud nazoratini amalga oshirish bilan bog'liq vakolatlarni o'z ichiga oladi". Yuqoridagi tahlillardan va qonun normalaridan kelib chiqib xulosa qiladigan bo'lsak, tergov sudyasi jinoyat

protsessida alohida institut bo'lib, uning asosiy vazifasini sud nazoratini amalga oshirish tashkil qiladi. Shu bilan birgalikda bu institutni boshqa umumyurisdiksiya sudlaridan bevosita farqi bo'lib, ular jinoyat ishini sudda mohiyatan ko'rib chiqish vakolati bo'lmaydi. Sud sanksiyasi – bu jinoyat protsessida ayrim tergov harakatlarini amalga oshirish yoki majburlov choralari qo'llash uchun sudning qonuniy asoslarga ko'ra taqdim etadigan yozma ruxsatnomasi hisoblanadi. Ushbu institut sud nazoratining muhim elementi bo'lib, u davlat organlarining majburlov choralari qo'llashda qonuniylikni ta'minlashga shuningdek, fuqarolarning erkinligi, daxlsizligi, hayoti va xususiy mulkiga aralashish bilan bog'liq harakatlar ustidan sud nazoratini ta'minlashga xizmat qiladi. Qodiraliyev Saddam va Gulmurodov Feruzjonlarning "Tergov sudyasi - O'zbekiston Respublikasi jinoyat protsessida yangi instituti sifatida" nomli hammualliflikdagi maqolasida keltirib o'tilganidek, "Sud nazorati tushunchasi jinoyat protsessida ishni sudga qadar yuritishda tergov sudyasi tomonidan surishtiruv va tergov organlari ustidan bevosita nazoratni amalga oshirishini anglatadi. Sud nazoratini amalga oshirilishi jinoyat protsessida ishni sudga qadar yuritishni obyektiv va xolisona amalga oshirilishini ta'minlaydi. Jinoyat protsessida tergov sudyasi institutining joriy etilishi orqali ayblov va himoya taraflarning tengligi va tortishuvi prinsipi ta'minlanadi". Bundan kelib chiqadiki sud organi muvofiqlashtiruvchi vazifasini o'tab, o'z o'rnida fuqarolarning huquq va konstitutsiyaviy erkinlarini ta'minlashi kerak. Sud ishlarini yuritishda odil sudlovni ta'minlashning eng muhim shartlaridan biri – protsessual harakatlarning qonuniyligi va tezkorligidir. Shu sababli mamlakatimizda jinoyat ishlari bo'yicha "tergov sudyasi" lavozimining tashkil etilganligi va "Tezkor-qidiruv hamda tergov faoliyatida shaxsning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 89-sonli prezident farmonida tergov sudyasiga bir necha masalalar yuzasidan sanksiya berish, jumladan qamoqqa olish yoki uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasini, qamoqda saqlash yoki uy qamog'i, pasportning (harakatlanish hujjatining) amal qilishini to'xtatib turish, murdani ekskumatsiya qilish, pochta-telegraf jo'natmalarini xatlash, tintuv o'tkazish, mol mulkni xatlash va boshqa shakldagi iltimosnomalar bo'yicha sanksiya berish vakolatiga ega bo'ldi. Biroq tergov sudyasi tomonidan protsessual majburlov choralari sanksiya berish mexanizmini to'laqonli onlayn formatga o'tkazish o'ziga xos texnik, tashkiliy va axborot xavfsizligi masalalarini hal qilishni talab qiladi. Shuningdek, Irlandiya Huquqni isloh qilish komissiyasining (Law Reform commission) "Tintuv orderlari (sanksiya) bo'yicha tahliliy-muhokama hujjati (Issues Paper on Search Warrants)" da keltirilganidek, "Simple Imports Ltd v Revenue Commissioners" sud ishida Oliy sud shunday ta'kidlagan, "Tintuv order(sanksiya)lari... politsiya va boshqa xodimlarga fuqaroning turar joyiga yoki shaxsiy mulkiga kirish, tintuv o'tkazish va... ushbu joydan topilgan ashyolarni olib qo'yish, shuningdek, ushbu harakatlar davomida ichkariga kirish va order orqali ruxsat etilgan tintuv hamda olib qo'yishni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan kuchni ishlatish huquqini beradi. Bular jamiyatni himoya qilish maqsadida politsiya va boshqa vakolatli organlar muayyan holatlarda foydalanishi zarur bo'lgan vakolatlardir. Biroq, ular shaxsning shaxsiy mulkiga

majburiy ravishda kirishga ruxsat bergani sababli, sudlar ushbu vakolatlarni qo'llashdan oldin qonun chiqaruvchi organ tomonidan belgilangan shartlarga qat'iy rioya etilishini ta'minlashga doimo e'tibor qaratishlari shart". Xulosa qilib aytish mumkinki, protsessual majburlov choralari amalga oshirish vakolatini beruvchi sanksiya berish fuqarolarning shaxsiy daxlsizlik va boshqa konstitutsiyaviy huquqlarini himoya qilish maqsadida sud tomonidan amalga oshirilishi to'laqonli asosli hisoblanadi.

Onlayn sud sanksiya tizimi uzoq rivojlangan o'tmishga ega bo'lib, uning rivojlanish ketma-ketligini Amerika misolida oladigan bo'lsak, amerikalik tadqiqotchi olim Tracy Hresko Pearl o'zining "On Warrants & Waiting: Electronic Warrants & The Fourth" maqolasida 1977-yilda Amerikada Kongress Jinoyat protsessual qoidalariga o'zgartirish kiritib, sanksiyalarni telefon orqali olishga ruxsat berganligi haqida yozadi.

Bu orqali Kongres bevosita politsiyaga sanksiyalarni tezroq yaratish imkonini berishni xohlagan. Keyinchalik 1993-yil yana o'zgartirish kiritilib endi sanksiyalarni olish jarayonida faks apparatlaridan foydalanishga ruxsat berilgan. 2006-yilda esa bu tizim yanada takomillashtirilib Kongress sudyalarga sanksiyalarni berishda ishonchli elektron vositalardan foydalanishga ruxsat berdi. Shu tariqa deyarli 50 yillik rivojlanish natijasida hozirgi kunda onlayn sud sanksiyasi AQShda faoliyat olib bormoqda. Onlayn sud sanksiyasi – bu sud tomonidan protsessual majburlov choralari qo'llashga elektron axborot tizimlari orqali masofadan turib ruxsat berish mexanizmidir. Onlayn sud sanksiyasiga turli maqolalar va dissertatsiyalarda turlicha tarif berib o'tilgan.

Xususan amerikalik falsafa doktori Gerald Lee Ward o'zining "Electronic Warrant Systems: The Effect of Advanced Technologies on Arrest Performance" nomli dissertatsiyasida quyidagicha keltirib o'tgan, "Onlayn sud sanksiyasi bu huquqni muhofaza qilish organlari xodimlariga ma'lum bir shaxsni ushlab hamda unga nisbatan jinoiy ayblovlar qo'yish uchun sud majlisiga olib kelish to'g'risidagi sud qarori ya'ni sanksiyasidir.

Onlayn sud sanksiyasi bu hibsga olish orderining yuridik vakolatga ega elektron yozuvi hamda hibsga olish orderi yozuvlarini so'rash, ro'yxatga olish, tarqatish, ijro etish va bekor qilishni qo'llab quvvatlaydigan kompyuter axborot tizimidir". Shuningdek u o'z ilmiy ishida onlayn sud sanksiyasi sudlar tomonidan beriladigan va huquqni muhofaza qilish organlari tomonidan ijro etiladigan protsessual majburlov choralari qo'llash uchun sanksiya bo'lib, u jinoiy odil sudlov tizimining ajralmas elementi hisoblanadi. Tashkiliy huquqiy nuqtai nazardan sanksiya berish tizimini onlaynga o'tkazish huquqni muhofaza qiluvchi organlar hamda sud instansiyalarining apparat dasturiy majmualarini yagona platformada birlashtirishni talab qiladi.

Buning uchun prokuratura, sud va boshqa davlat organlari o'rtasida dastlabki tergov va surishtiruv organlarining elektron ma'lumot almashuv shaklini, shu jumladan, axborot tizimlari va ma'lumotlar bazalarini integratsiya qilish yo'li bilan joriy etish, jinoiy-huquqiy statistika tizimini takomillashtirish, jinoyatlar hisobini yuritishning shaffofligini ta'minlash, shuningdek, ularning sodir etilishi sabablarini maqsadli tahlil qilish yo'li bilan jinoyatchilikka qarshi kurashish samaradorligini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 31-oktabrda "Jinoiy-huquqiy statistika tizimini tubdan takomillashtirish va jinoyatlarni tizimli tahlil qilish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 5566-sonli farmoni qabul qilindi va hozirgi kunda protsessual majburlov choralari qo'llash uchun

sanksiya olish aynan shu farmon asosida shakllantirilgan “Elektron jinoiy-huquqiy statistika” yagona axborot tizimi orqali amalga oshirilmoqda.

Biroq protsessual majburlov choralari qo'llash bo'yicha sanksiya olish an'anaviy qog'oz shaklida amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, sud ishlarini yuritish tizimiga onlayn sud sanksiyasi institutining joriy qilinishi bu shunchaki raqamli texnologik yangilanish emas, balki modernizatsiyalashgan jinoyat-protsessual majburlov choralari amalga oshirishning va “tergov sudyasi” institutini jahon standartlariga moslashtirishning fundamental asosi hisoblanadi.

Amaliyotda onlayn sud sanksiyasi instituti an'anaviy sanksiya berish tizimlariga qaraganda samaraliroq bo'lsa-da, ushbu tadqiqot natijalari takomillashtirish zarur bo'lgan ba'zi sohalar mavjudligini ko'rsatdi. Garchi onlayn sud sanksiyasi tizimi qog'ozga asoslangan an'anaviy tizimga nisbatan ijobiy ijtimoiy o'zgarishlarga olib kelishi kutilayotgan bo'lsa-da, yanada kattaroq ijobiy ijtimoiy o'zgarishlarga erishish maqsadida ushbu tizimni takomillashtirishi mumkin bo'lgan o'ziga xos samaradorlik omillarini aniqlash uchun qo'shimcha tadqiqotlar o'tkazish zarur.

Onlayn sud sanksiya tizimi inson omilini kamaytirish, hujjatlarni qalbakilashtirish, byurokratik to'siqlarni bartaraf qilish yoki yo'qotish xavfini kamaytirish imkonini beradi. Har bir iltimosnoma va unga berilgan sud sanksiyasi tizimda raqamli iz qoldiradi, bu esa idoraviy va sud nazoratining shaffofligini ta'minlaydi. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, onlayn sanksiya tizimining muvaffaqiyati faqatgina axborot texnologiyalarini joriy etish bilan o'lchanmaydi. Huquqni muhofaza qilish organlari va sud tizimi o'rtasida ma'lumot almashinuvchi yagona, xavfsiz va o'zaro muvofiq ishlaydigan axborot tizimini yaratish talab etiladi.

Shu sababli, axborot xavfsizligi, kiberhujumlardan himoyalangan, korrupsiya va vakolatni suiiste'mol qilishni oldini olish, byurokratik to'siqlarni cheklash hamda zamonaviy dunyo standartlariga sud-huquq tizimini moslashtirish maqsadida, bevosita “my.sud.uz” hamda “Elektron jinoiy-huquqiy statistika” yagona axborot tizimiga integratsiyalashgan yangi “E-sanksiya” yagona axborot tizimini joriy etish taklif qilinadi. Bundan kutilayotgan natija, iltimosnomalarga inson omili aralashuvisiz, shuningdek korrupsiya bilan bo'g'liq xavf-xatarlarni bartaraf etgan holda, o'z protsessual muddatida sanksiya berish imkoniyati oshirilishidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son
2. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 16.01.2026-y., 03/26/1114/0047-son
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 31-oktabrda “Jinoiy huquqiy statistika tizimini tubdan takomillashtirish va jinoyatlarni tizimli tahlil qilish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 5566-sonli farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 11.04.2025-y., 06/25/65/0331-son
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yilda 10-iyunda “Tezkor qidiruv hamda tergov faoliyatida shaxsning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 89-sonli farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 11.06.2024-y., 06/24/89/0412 son

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-avgustdagi "Sudlar faoliyatiga sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish orqali odil sudlovga erishish darajasini oshirish hamda sud tizimining moddiy-texnik ta'minotini yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 140-son Farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 23.08.2025-y., 06/25/140/0771-son
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston – 2030 strategiyasini 2023-yilda sifatli va o'z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 300 sonli qarori // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.12.2025-y., 07/25/388/1235-son
7. Issues Paper on Search Warrants. Law Reform Commission (LRC IP 4-2014). – Dublin: Law Reform Commission, 2014. – P. 1–14.
8. Jo'raqulov D.D. Tergov sudyasi tomonidan sanksiya berish tartibi: huquqiy asoslari, amaliyot va dolzarb muammolar // Лучшие интеллектуальные исследования. 2025. Т. 2, Ч. 57. – Б. 298–306.
9. Pearl T.H. On Warrants & Waiting: Electronic Warrants & The Fourth Amendment // Indiana Law Journal. – 2023. – Vol. 99. – Iss. 1, Article 1. – P. 1–42.
10. Qodiraliyev S.B., Gulmurodov F.O. Tergov sudyasi – O'zbekiston Respublikasi jinoyat protsessida yangi institut sifatida // Kriminologiya va jinoiy odil sudlov. 2023.Vol. 3. Issue 4. B. 28–39.
11. Volchetskaya T.S. Digitalization of legal proceedings and information technologies in justice // Journal of Legal Studies, 2018
12. Zinchenko I.A. Sledstvennyy sud'ya kak uchastnik dosudebnogo ugolvnogo proizvodstva (komparativistskiy vzglyad) [Investigating judge as a participant in pre-trial criminal proceedings (comparative view)]. Bulletin of the Kaliningrad branch of St. Petersburg University of the Ministry of Internal Affairs of Russia, 2015, no. 3 (41). Available at:
13. Ward G. L. Electronic Warrant Systems: The Effect of Advanced Technologies on Arrest Performance (Elektron order tizimlari: Ilg'or texnologiyalarning hibsga olish samaradorligiga ta'siri): PhD dissertatsiyasi. – Walden University, 2016. – 179b